

ONA TILI DARSLARIDA SHEVAGA XOS SO‘ZLARNI O‘QITISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Rizoqulova Sevinch

ToshDO‘TAUning 3-kurs talabasi

sevinchrizokulova338@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida shevaga xos so‘zlarni o‘qitishning uslubiy asoslari va amaliy tavsiyalari yoritilgan. Shevalarning o‘quvchilarining og‘zaki nutqini boyitishdagi, milliy tafakkur va madaniy xotirani shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida shevaga oid materiallardan samarali foydalanish, o‘quvchilarни faollikka undash va ijodiy topshiriqlar orqali ularning tilga qiziqishini oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Maqola o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

Abstract: This article discusses the methodological foundations and practical recommendations for teaching dialect-specific words in native language lessons. The role of dialects in enriching students' oral speech, forming national thinking and cultural memory is analyzed. Also, ways to effectively use dialect-related materials in the lesson process, encourage students to be active, and increase their interest in the language through creative tasks are shown. The article is recommended as a methodological guide for teachers.

Kalit so‘zlar: sheva, ona tili, o‘qitish metodikasi, leksik birlik, milliy tafakkur, og‘zaki nutq, dars jarayoni, ijodiy topshiriq.

Keywords: dialect, native language, teaching methodology, lexical unity, national thinking, oral speech, lesson process, creative task.

Kirish

Har bir tabiiy til o‘z strukturasi, mintaqaviy ko‘rinishlari va leksik boyligi orqali nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ijtimoiy-madaniy tajribasini mujassam etuvchi tizimli hodisa sifatida qaraladi. Tilshunoslik fanida tilning mintaqaviy variantlari – shevalar alohida e’tibor bilan o‘rganiladi, chunki ular tilning ichki taraqqiyoti, dialektologik qatlamlari va tarixiy jarayonlar natijasi sifatida shakllanadi. Shevalardagi leksik birliklar esa muayyan hududga oid vogeliklarning til ifodasi bo‘lib, milliy tafakkur va xalqona dunyoqarashning bevosita mahsuli hisoblanadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir¹”, - degan so’zlarini eslash o‘rnlidir. Demak, shevalar to‘g‘risidagi fanni o‘rganish talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug‘diradi. To‘g‘ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutishi kerak degan so‘z emas². O‘zbek tilining shevalarida saqlanib qolgan ko‘plab arxaik so‘zlar, mintaqaviy leksik birliklar ham tarixiy til qatlamlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarga shevaga xos so‘zlarning mohiyatini ochib berish, ularni adabiy til bilan taqqoslash orqali ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlar amalga oshiriladi.

Darslikning eng qimmatli o‘rinlaridan yana biri unda amaliy mashg‘ulotlar uchun shevalardan yozib olingan matnlarning berilishidir. Darslikdagi matnlarning asosini xalq og‘zaki ijodi materiallari tashkil etadi. Ular shevalarning eng muhim xususiyatlarini aks ettira oladi, lekin unda har qanday holatda ham adabiy til an’analari ishtirok etadiki, bu o‘quv jarayonida talabalarimizning ba’zan tanqidiy yondashishiga olib kelmoqda³.

¹ Каримов И. Ватан ва халқ мангу колади. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Узбекистан Миллий кутубхонаси нашириети, 2010. — Б. 123.

² Ashirboyev Samixon. O ‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI // darslik //T.: «NAVRO‘Z» nashriyoti 2016. - 136 b.3-bet.

³ “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyat, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi II Respublika ilmiy-nazariy konferensiysi materiallari [Matn]: materiallar to‘plami / mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 216 b.

Ko'rib turganimizdek, shevalarga bo'lgan e'tibor kata va uni darsliklarda qo'llash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida esa ana shunday shevalarni o'tish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan metodlardan namunalar keltiramiz:

1. Taqqoslash (kontrastiv) metodi

Maqsadi: Adabiy til va sheva o'rtaqidagi farqlarni tushuntirish.

Qo'llanilishi: O'quvchilarga adabiy til va shevadagi bir necha sinonim so'zlar beriladi va ular ma'no, qo'llanish sohalari, talaffuz jihatdan taqqoslanadi.

Misol: uy (adabiy) — xona (sheva), kichkina — tiyintiq, gapirmoq — aytmoq.

2. Kontekstual (matnga asoslangan) metod

Maqsadi: Shevaga xos so'zlarni kontekstda tushunish va qo'llashni o'rgatish.

Qo'llanilishi: Shevaga oid matnlar (ertak, doston, hikoya) o'qitiladi va ulardan so'zlar ajratib olinadi, izohi beriladi, adabiy shakli bilan bog'lanadi.

3. Interaktiv suhbatlar va rolli o'yinlar metodi

Maqsadi: O'quvchilarni faol muloqotga jalb qilish, og'zaki nutqni rivojlantirish.

Qo'llanilishi: O'quvchilar juftliklarda yoki guruhda shevada qisqa dialoglar tuzadi yoki rolli sahna ko'rinishlari yaratadi.

Masalan: Bozordagi suhbat, qishloqdagi mehmondorchilik sahnasi.

4. Tadqiqot metodi (izlanish topshiriqlari)

Maqsadi: O'quvchilarning mustaqil izlanish ko'nikmasini shakllantirish.

Qo'llanilishi: O'quvchilarga shevaga oid so'zlarni oilasidan, mahalliy aholidan yoki internet manbalaridan to'plash topshiriladi. Ular lug'at shaklida rasmiylashtiriladi.

5. IJODIY YONDASHUV METODI

Maqsadi: Shevaga oid so'zlardan ijodiy foydalanishni o'rgatish.

Shevaga oid hikoya yozish.

Shevadagi maqollar asosida kichik dialog tuzish.

"Shevada gapiruvchi qahramon" nomli insho yozish.

Bu metodga 10-sinf on tili darsligining 99-sahifasidagi matn orqali tushuntirsak bo‘ladi:

Pashshami yo chivin?

Ba’zan bitta so‘zning o‘zi turli shevalarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, “pashsha” so‘zi adabiy til lug‘atida «yozgi qo‘sh parda qanotli hasharot» (ruscha “muxa”) ni bildiradi. Biroq ayrim shevada u chivin (ruscha “komar”) so‘zi o‘rnida ishlatiladi. Ajal yetmay o‘lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi chivinning joni («Alpomish») gapidagi chivin so‘zi ham, Atrofda g‘uv-g‘uv pashsha: oyoqlarga yopishadi, burun kataklariga suqiladi, quloqni uzadi (Oybek) gapida pashsha so‘zi ham kunduzi uchadigan hasharot ma’nosida qo‘llanadi. Unday bo‘lsa, kechasi chivinlarga qarshi tutiladigan doka-uyni nega “pashshaxona” deyishadi? Qaysi biri to‘g‘ri ekan-a?

Xulosa: Ona tili darslarida shevaga xos so‘zlarni o‘rgatish nafaqat til boyligini oshirish, balki o‘quvchilarning milliy ongini, madaniy merosga bo‘lgan hurmatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shevalarni o‘rganish orqali o‘quvchilar turli hududlarga xos leksik birliklar, talaffuz va iboraviy xususiyatlar bilan tanishadi, tilga estetik va emotsiyal munosabatni rivojlantiradi. Dars jarayonida taqqoslash, suhbat, ijodiy yozuv, izlanish va vizuallashtirish kabi metodlardan samarali foydalanish shevaga xos so‘zlarni o‘zlashtirishda ijobiy natijalar beradi. Shu bois o‘qituvchilar darslarda nafaqat adabiy tilga, balki shevaga oid materiallarga ham yetarli e’tibor qaratishlari, o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi namunalariga yaqinlashtirish orqali ularning muloqot madaniyatini va milliy o‘zligini rivojlantirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Каримов И. Ватан ва халқ мангу колади. - Тошкент: Алиишер Навоий номидаги Узбекистан Миллий кутубхонаси нашриети, 2010. — Б. 123.
2. Ashirboyev Samixon. 0 ‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI // darslik //T.: «NAVRO‘Z» nashriyoti 2016. - 136 b.3-bet.
3. “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi II Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari [Matn]: materiallar to‘plami /– Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 216 b.
4. Ўзбек халқ шевалари лугати. –Тошкент: Фан, 1991. –407 b.
5. Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. –224 b.